


## ISTE'MOL BOZORI

(2019-yil yanvar- dekabr oylari)


Viloyat bo'yicha 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 731,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning shu davriga nisbatan 7,4 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 136,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 128,2%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2 595,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 6,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 242,9 mlrd. so'mni (2018-yilning shu davriga nisbatan 2,5 % ga o'sgan) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)



Chakana savdo tovar aylanmasida katta hajmga ega bo'lgan Guliston shahri (980,3 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (486,8 mlrd.so'm), Yangiyer shahri (264,3 mlrd.so'm), Mirzaobod tumani (248,5 mlrd.so'm), ijobiy tasirini ko'rsatmoqda.


### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2018-yilning mos davriga nisbatan 28,2 % ga o'sdi va 136,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,0 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 2 595,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 6,5 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 95,0 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi yanvar-dekabr oylari yillar kesimida ulishi, (%)da



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi 2015-yil yanvar-dekabr oylari 87,6 % ni tashkil qilgan bo'lsa 2019-yilga kelib kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulishi 95,0 % ni tashkil qildi.

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushi, (%)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Xovos t (99,4 %), Shirin sh (99,1 %), va Boyovut (98,5%) tumani yetakchilik qilmoqda.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 5,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Yangiyer shahri (8,4 %), Guliston shahrida (7,2 %) va Sirdaryo tumani (4,4 %) kuzatildi.

**Chakana savdo aylanmasi va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari  
tovar aylanmasidagi hajmi**

	Chakana savdo aylanmasi (mlrd.so'm)	2018- yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd.so'm)	2018-yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	2 731,9	107,4	2 595,7	106,5
Guliston sh.	980,3	107,5	909,9	106,0
Shirin sh	41,6	107,1	41,2	107,6
Yangiyer sh	264,3	108,0	242,0	104,5
tumanlar:				
Boyovut	142,0	101,5	139,9	104,1
Guliston	105,9	106,5	103,4	105,0
Mirzaobod	248,5	110,6	240,7	109,2
Oqoltin	141,1	106,8	138,5	105,6
Sardoba	120,9	105,9	118,6	104,5
Sayxunobod	95,2	101,7	91,6	108,5
Sirdaryo	486,8	110,2	465,2	109,5
Xovos	105,3	103,6	104,7	104,0

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda) aholi jon boshiga 5,5 % ga oshib, 3259,3 ming so'mni tashkil etdi (2018- yilda 2726,6 ming so'mni tashkil qilgan).

**Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, yanvar-dekabr oylari (%)da.**



2019-yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 3 259,3 ming so'mni tashkil qilib, 2018-yilning shu davriga nisbatan 5,5 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 2018-yilga nisbatan o'rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Guliston shahri (10 917,2 ming so'm), Yangiyer shahri (6 160,6 ming so'm) va Sirdaryo tumanida (3 836,4 ming so'm) kuzatildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Xovos tumanida (1 112,8 ming.so'm), Boyovut tumani (1 107,0 ming.so'm) va Sayxunobod tumanida (1 244,0 ming so'm) qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quydagicha ko'rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so'm	2018-yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>3 259,3</b>	<b>105,5</b>
Guliston sh.	10 917,2	106,2
Shirin sh	2 235,3	107,1
Yangiyer sh	6 160,6	105,8
tumanlar:		
Boyovut	1 107,0	99,6
Guliston	1 481,0	104,0
Mirzaobod	3 436,8	107,7
Oqoltin	2 739,6	104,7
Sardoba	1 851,8	104,1
Sayxunobod	1 244,0	100,1
Sirdaryo	3 836,4	108,3
Xovos	1 112,8	101,7


Jumladan, 2019-yilning yanvar-dekabr oylari chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9 %ni tashkil etib, 53,7 mlrd. so'mga yetdi yoki 2018-yilning mos davriga nisbatan 7,5 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

**SIRDARYO VILOYATINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**  
(2019-yil yanvar-dekabr oylari)

2019-yil yanvar-dekabr oylari viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1491,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. 2018-yilning shu davriga nisbatan 6,0 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirdorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra 948,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning shu davriga nisbatan 8,7 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 63,6 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Yangiyer (100,0 %), Shirin (99,7 %) va Guliston shaharlarida ( 90,1 %) yuqori bo'lgan.

**Yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirdorlik sub'ektlarining  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar 2019-yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, 542,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,7 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 36,4 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Sardoba tumanida (98,2 %), Boyovut tumanida (92,9 %) va Xovos tumanida (95,3 %) yuqori bo'lgan.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so'm)	2018-yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	2018-yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so'm)	2018- yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	1 491,4	106,0	542,9	101,7	948,5	108,7
Guliston sh.	481,8	100,0	47,9	67,9	434,0	105,4
Shirin sh	0,7	104,7	-	42,7	0,7	105,2
Yangiyer sh	28,0	105,3	-	0,0	28,0	105,3
<b>tumanlar:</b>						
Boyovut	101,9	83,5	94,7	82,2	7,2	105,8
Guliston	44,1	117,6	31,4	124,1	12,7	104,2
Mirzaobod	101,3	118,1	31,8	154,7	69,5	106,6
Oqoltin	39,7	119,6	31,7	115,5	8,0	138,8
Sardoba	82,6	90,3	81,1	90,1	1,5	105,5
Sayxunobod	164,7	105,5	115,0	106,1	49,7	104,1
Sirdaryo	390,5	117,8	55,9	141,5	334,6	114,6
Xovos	56,2	141,4	53,5	143,8	2,7	106,5

### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining ulushi, (%)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida (32,3 %), Sirdaryo tumanida (26,2 %), Sayhunobod tumanida (11,0 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.:71-230-86-34